



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№5

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

5-jild
5-son
May, 2026

May, 2026
Volume 5
Number 5

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)
Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)
Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)
Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)
Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)
Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)
Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)
Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)
Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)
Sadriiddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)
Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)
Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)
Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)
Kolossova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik
Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor
Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor
Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor
Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor
Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor
Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor
Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent
Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent
Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent
Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent
Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)
Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)
Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)
Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Menejment va marketing
Management and marketing
Менеджмент и маркетинг



ZAMONAVIY QURILISH SOHASIDA RISK BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI VA ISTIQBOLLARI

Mirzayev Baxtiyorjon Obokulovich

ФАКТОРЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ В СОВРЕМЕННОЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ

Мирзаев Бахтиёржон Обокулович

FACTORS AND PROSPECTS FOR IMPROVING RISK MANAGEMENT IN THE MODERN CONSTRUCTION INDUSTRY

Mirzaev Bakhtiyorjon Obokulovich

Received: May 19, 2026 May: May 20, 2026 May: May 21, 2026 Published: June 1, 2026

Annotatsiya: maqolada zamonaviy qurilish sohasida risklarni boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Qurilish loyihalarida uchraydigan moliyaviy, texnik, tashkiliy, ekologik va xavfsizlikka oid risklar tasniflangan hamda ularni baholash va prognozlash usullari yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, BIM texnologiyalari va innovatsion boshqaruv usullarini joriy etish orqali qurilish sohasida risk boshqaruvini takomillashtirishning istiqbollari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: qurilish sohasi, risk, risk boshqaruvi, BIM texnologiyasi, prognozlash, investisiya, raqamlashtirish, qurilish loyihalari, xavfsizlik, innovatsiya.

Аннотация: в статье анализируются теоретические и практические аспекты управления рисками в современной строительной отрасли. Классифицируются финансовые, технические, организационные, экологические риски и риски безопасности, встречающиеся в строительных проектах, и освещаются методы их оценки и прогнозирования. Также рассматриваются перспективы улучшения управления рисками в строительной отрасли за счет внедрения цифровых технологий, искусственного интеллекта, BIM-технологий и инновационных методов управления.

Ключевые слова: строительная отрасль, риск, управление рисками, BIM-технологии, прогнозирование, инвестиции, цифровизация, строительные проекты, безопасность, инновации.

Abstract: this article analyzes the theoretical and practical aspects of risk management in the modern construction industry. It classifies the financial, technical, organizational, environmental, and safety risks encountered in construction projects, and discusses methods for assessing and forecasting them. It also examines prospects for improving risk management in the construction industry through the implementation of digital technologies, artificial intelligence, BIM technologies, and innovative management methods.

Keywords: construction industry, risk, risk management, BIM technologies, forecasting, investment, digitalization, construction projects, safety, innovation.

KIRISH

Bugungi kunda qurilish sohasi iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Yangi infratuzilma obyektlari, turar-joy majmualari, sanoat va ishlab chiqarish ko'lamining ortishi hamda fuqaro binolarining barpo etilishi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omili sifatida namoyon

bo'lmoqda. Biroq qurilish jarayoni ko'plab noaniqliklar va xavf-xatarlar bilan bog'liq bo'lib, ular loyihaning muddati, sifati va iqtisodiy samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [5].

Qurilish sohasida risklarni samarali boshqarish loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlash, xarajatlarni kamaytirish va



raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli zamonaviy qurilish sohasida risk boshqaruvini takomillashtirish dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Qurilish sohasida risk boshqaruvi masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Xorijiy iqtisodchi olimlaridan G. N. Crockford, G. Dionne, A. Fekete, S. A. Burtonshaw-Gunn, J. Chapman Robert, L. Edwards, N. Smith, F. Knight va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida risklar nazariyasi, risklarni boshqarishning ilmiy-nazariy, uslubiy asoslari aks etgan.

MDH iqtisodchi olimlaridan I. T. Balabanov [2], A. G. Badalova, Y. N. Barikayev, G. V. Savitskaya, A. N. Asaul, V. V. Buzirev, P. G. Graboviy va boshqalarning ilmiy ishlarida tadbirkorlik faoliyatidagi risklarni tahlil etish, qurilish ishlarida investitsion risklarni boshqarish sohasidagi tadqiqotlar olib borilgan.

Riskni boshqarish omillari, moliyaviy risklarni boshqarish, risklarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari mamlakatimiz olimlaridan M. Sharifxo'jayev, Y. Abdullayev, Sh. N. Zaynutdinov, N. Q. Yo'ldashev, R. I. Nurimbetov, K. U. Sharifxodjayeva va boshqalarning asarlarida yoritilgan.

So'nggi yillarda BIM texnologiyalari asosida risklarni boshqarish bo'yicha ilmiy ishlar soni ortib bormoqda. Tadqiqotchilar raqamli texnologiyalarning qurilishdagi vaqt, xarajat va sifat bilan bog'liq risklarni kamaytirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ta'kidlamodalar.

O'zbekistonda ham qurilish sohasini raqamlashtirish, loyihalar samaradorligini oshirish va risklarni kamaytirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil usuli hamda statistik ma'lumotlarni o'rganish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotda qurilish obyektlarida risklarni aniqlash va baholash jarayonida milliy normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinadi, qurilish ma'lumotlari asosida statistik va iqtisodiy-matematik modellash, xavflar va ehtimollik aniqlanadi hamda risklarni boshqarish samaradorligini baholash qo'llanilgan. Tadqiqot jarayonida qurilish sohasidagi mavjud risklar o'rganish hamda ularni kamaytirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy qurilish sohasi quyidagi asosiy yo'nalishlardan tashkil topgan: fuqaro binolari qurilishi, sanoat binolari va inshootlari qurilishi, transport infratuzilmasi obyektlari, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, gidrotehnika inshootlari, rekonstruksiya va kapital ta'mirlash ishlari, "yashil qurilish" va energiya samarador binolar qurilishi [6].

So'nggi yillarda qurilish sohasida raqamlashtirish, avtomatlashtirish va innovasion

materiallarni qo'llash tendensiyalari kuchaymoqda. BIM (Building Information Modeling), dronlar, geoaxborot tizimlari va sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy qilinishi loyihalarni boshqarish samaradorligini oshirmoqda.

Shu bilan birga qurilish sohasida quyidagi risklar mavjud: iqtisodiy risklar, investisiya risklari, loyihalash risklari, qurilish-montaj ishlari risklari, mehnat xavfsizligi risklari, ekologik risklar, huquqiy va shartnomaviy risklar [4].

Qurilish risklarini baholash – xavf-xatarlarni aniqlash, ularning ehtimolligi va oqibatlarini tahlil qilish jarayonidir. Risklarni baholashning asosiy bosqichlari sifatida quyidagilarni aytish mumkin: risklarni identifikatsiya qilish, risk manbalarini aniqlash, risk ehtimolligini baholash, risk ta'sir darajasini baholash, risklarni ustuvorlashtirish, boshqaruv choralarini ishlab chiqish [1].

Risklarni baholash usullari ikki turga bo'linadi. Sifat baholash usullari: ekspert baholash, swot-tahlil, delphi usuli, chek-list usuli. Miqdoriy baholash usullari: statistik tahlil, monte-karlo modellash, ssenariy tahlili, ehtimollik nazariyasi usullari, daraxtsimon qarorlar tahlili [3].

Prognozlash qurilish loyihalarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni oldindan baholash imkonini beradi. Zamonaviy qurilishda katta ma'lumotlar (Big Data), sun'iy intellekt va mashinali o'qitish texnologiyalari asosida risklarni prognozlash keng qo'llanilmoqda.

Qurilish sohasida zamonaviy sharoitda risk boshqaruvini takomillashtirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

1. BIM texnologiyalarini keng joriy qilish. BIM texnologiyasi loyiha barcha bosqichlarida ma'lumotlarni yagona raqamli muhitda boshqarish imkonini beradi. Bu esa xatolarni kamaytiradi va risklarni erta aniqlashga xizmat qiladi.

2. Sun'iy intellektdan foydalanish. Sun'iy intellekt qurilish jarayonlarini tahlil qilish, xavflarni bashorat qilish va qaror qabul qilishni avtomatlashtirish imkonini yaratadi.

3. Raqamli monitoring tizimlari. Dronlar, sensorlar va IoT qurilmalari yordamida qurilish obyektlarining holatini real vaqt rejimida kuzatish mumkin.

4. Mehnat xavfsizligini raqamlashtirish. Mehnat muhofazasi talablariga rioya etilishini nazorat qilish tizimlari ishlab chiqarish jarohatlarini kamaytiradi.

5. Ekologik risklarni boshqarish. "Yashil qurilish" standartlarini joriy qilish orqali atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish mumkin.

Kelajakda qurilish sohasida risk boshqaruvi to'liq raqamli platforma asosida tashkil qilinishi va qaror qabul qilish jarayonlarida sun'iy intellektning ishtiroki sezilarli darajada o'tishi kutilmoqda.

Tahlillar ko'rsatishicha, qurilish loyihalarida uchraydigan risklarning asosiy qismi quyidagi omillar bilan bog'liq:

Qurilish loyihalarida uchraydigan risklarning asosiy qismi

№	Risk turi	Ulushi (%)
1.	Moliyaviy risklar	28
2.	Texnik risklar	24
3.	Tashkiliy risklar	18
4.	Xavfsizlik risklari	15
5.	Ekologik risklar	9
6.	Boshqa risklar	6

Natijalarga ko'ra, BIM texnologiyalaridan foydalanish loyihalash xatolarini 25–40% gacha, qurilish jarayonidagi muvofiqlashtirish muammolarini 30% gacha kamaytirishi mumkin.

Raqamli monitoring vositalari qo'llanilganda qurilish jarayonlaridagi kechikishlar sezilarli darajada qisqarishi kuzatilgan.

Tahlil natijalari qurilish sohasida risk boshqaruvini takomillashtirish raqamli transformatsiya bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatdi. BIM, IoT va sun'iy intellekt texnologiyalari xavflarni oldindan aniqlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Shu bilan birga, mazkur texnologiyalarni joriy etish uchun yuqori malakali kadrlar, raqamli infratuzilma va huquqiy-me'yoriy bazani yanada takomillashtirish talab etiladi. Bu esa qurilish sohasida kompleks islohotlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy qurilish sohasi yuqori darajadagi risklar bilan bog'liq bo'lib, ularni samarali boshqarish loyihalar muvaffaqiyatining muhim sharti hisoblanadi. Risklarni baholash va prognozlashning zamonaviy usullaridan foydalanish qurilish jarayonlarining barqarorligini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari BIM texnologiyalari, sun'iy intellekt, raqamli monitoring va "yashil qurilish" konsepsiyalarini keng joriy etish qurilish sohasida risk boshqaruvini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari ekanligini ko'rsatdi. Kelajakda mazkur texnologiyalardan samarali foydalanish qurilish loyihalarining iqtisodiy samaradorligi va xavfsizligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Mirzayev Baxtiyorjon Obokulovich Andijon davlat texnika instituti "Qurilish muhandisligi va arxitektura" kafedrası, katta o'qituvchi / Мирзаев Бахтиёржон Обокулович Андижанский

государственный технический институт
Старший преподаватель кафедры «Строительная инженерия и архитектура» / Mirzayev Baxtiyorjon Obokulovich Andijan State Technical Institute Senior Lecturer, Department of Construction Engineering and Architecture

E-mail: bakhtiyor_mirzo@astiedu.uz

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-2104-6090>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Воробьев С.Н. Управление рисками в предпринимательстве – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и Ко». - 2013. – 482 с.

2. Балабанов, И.Т. Риск-менеджмент - М.: Финансы и статистика, 1996. - С.192.

3. Романов, В.С. Классификация рисков: принципы и критерии [Электронный ресурс] «Финансы и кредит». - №2. 2006. - Режим доступа: <http://www.aup.ru/articles/finance/4.htm>

4. Беляева И.Ю., Козлова Н.П. Репутационные риски компании// Экономические системы. 2014. № 3. С. 28-33.

5. Mirzayev B.O. "Risklarning yuzaga kelish sabablari va ularni boshqarish asoslari" Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, [2025-5].

6. Mirzayev B.O. "Qurilish korxonalarida risklarniboshqarishning o'ziga xos xususiyatlari, omillari va risklarning tasniflanishi", A.R.Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g'oyalar, integratsiya va tejamkorlik" mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari, 2025-yil 15-16-sentabr.

7. Mirzayev B.O. "Qurilish obyektlarini qurilish risklaridan sug'urtalash - risklarni boshqarishning samarali usullaridan biri" Agrobiznes, fan va texnologiyalar jurnali, Toshkent davlat agrar universiteti, 2025-yil, №6 [6]-son.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz